



## SIYOSIY TEXNOLOGIYALAR—HUKUMATNI EGALLASHDA MUHIM VOSITA

*Otajonova Dilnura Otajonovna*  
*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi*  
*E-mail: [dilnuraotajonova1211@gmail.com](mailto:dilnuraotajonova1211@gmail.com).*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada siyosiy texnologiyalarning tarixiy rivojlanishi, ularning zamonaviy ko‘rinishlari, qanday afzalliklar va kamchiliklarga ega ekanligi va hukumatni egallahshdagi strategik muhim ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola siyosiy texnologiyalardan oqilona foydalanish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha takliflar ham beradi. Ushbu maqola bu masalani qiyosiy-siyosiy tahlil, kontent tahlil, SWOT va PESTLE usullari yordamida o‘rganadi va buning uchun turli mamlakatlarning tajribalari, bir qancha ilmiy manbalar, jurnallar hamda o‘z navbatida, elektron resurslardan ham foydalanildi. Asosiy maqsad siyosiy texnologiyalarning hukumatni egallahsh jarayonidagi rolini har tomonlama yoritish va mazkur sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar ham uchun asos yaratish sanaladi.

**Kalit so‘zlar:** Siyosiy texnologiyalar, siyosiy jarayonlar, hukumatni egallahsh, siyosiy manipulatsiya, saylovlar, siyosiy boshqaruv, xalq ishtiroki, siyosiy nazorat.

### **Kirish:**

Siyosiy texnologiyalar—siyosiy jarayonlarni boshqarish, ularga ta’sir o‘tkazish va umuman olganda, siyosiy maqsadlarga erishish uchun ishlataladigan vositalar, usullar va strategiyalar majmuasidir. Ma’lumki, siyosiy texnologiyalar insoniyat tarixida har doim hukumatni shakllantirish, kuchlarni taqsimlash va xalqni boshqarish uchun muhim vosita rolini o‘ynab kelgan. Ushbu texnologiyalar



saylov jarayonlaridan tortib, davlat boshqaruviga ta'sir o'tkazishgacha bo'lgan keng ko'lamli sohalarda qo'llaniladi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va internetning tarqalishi siyosatda ham keskin o'zgarishlarga sabab bo'ldi va siyosiy texnologiyalar hukumatni egallahda zarur vositalardan biriga aylandi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu saylov natijalariga hamda siyosiy barqarorlikka ham jiddiy ta'sir o'tkaza boshladи. Shu sababli, siyosiy texnologiyalarning hukumatni egallahdagi rolini o'rghanish va tahlil qilish siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar sohasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Siyosiy texnologiyalarning uzoq muddatli yoki qisqa muddatli maqsadlarga yo'naltirilganligiga qarab strategik va taktik turlari mavjud. Strategik—uzoq muddatli maqsadlar uchun qo'llaniladigan texnologiyalar bo'lib, asosan, bularga saylovlarda g'alabaga erishish uchun foydalilanadigan siyosiy texnologiyalar kiradi. Taktik—qisqa muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan siyosiy texnologiyalar kiradi: ular odatda ommaviy axborot vositalari yordamida namoyon bo'ladi.

### Tadqiqot metodlari:

Ushbu maqolada turli xil tadqiqot usullari qo'llanadi:

- Qiyosiy-siyosiy tahlil: Turli mamlakatlardagi siyosiy texnologiyalardan foydalanish tajribasini bir-biri bilan qiyoslab o'rghanish.
- Kontent tahlil: Ommaviy axborot vositalari, siyosiy nutqlar va hujjatlarni o'rghanish yordamida siyosiy texnologiyalarning ta'sirini o'rghanish.
- SWOT tahlil: Siyosiy texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, imkoniyatlari va xavflarini tahlil qilish.
- PESTLE tahlil: Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarning siyosiy texnologiyalarga ta'sirini o'rghanish.

Siyosiy texnologiyalarning tarixiy rivojlanishi:



Siyosiy texnologiyalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalishi barchamizga ayon. Xususan, Qadimgi Yunonistonda ritorika san’ati juda yaxshi rivojlanib, usiyosiy nutqlarning muhim qismi bo‘lgan va bu san’atni puxta o‘zlashtirgan shaxslarning o‘z siyosiy maqsadlariga erishishlari osonroq bo‘lgan. Yana bir yorqin asos: Rim imperiyasida saylov jarayonlarida nomzodlarni qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil strategiyalar, jumladan, ommaviy tadbirlar va turli xil targ‘ibot ishlari amalga oshirilgan. Keyinchalik, O‘rta asrlarda esa cherkov va hukmdorlar o‘z ta’sirini o‘tkazish uchun diniy targ‘ibot va ommaviy marosimlardan foydalanishgan. Yangi davrga kelib, ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi natijasida siyosiy texnologiyalar ham yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘z navbatida, gazetalar, radio va keyinchalik televideniye siyosiy xabarlarni tezkor va keng tarqatish imkoniyatini berdi. XX asrda siyosiy maqsadlarga erishish uchun turlicha psixologik usullar, jumladan, propaganda, reklama va ommaviy manipulyatsiya keng qo‘llanila boshlandi.<sup>1</sup>

Zamonaviy ko‘rinishdagi siyosiy texnologiyalar:

Hozirgi davrda, ya’ni raqamli texnologiyalar va axborot asrida siyosiy texnologiyalar yanada rivojlanib, quyidagicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

**Internet va ijtimoiy tarmoqlar:** Ular siyosiy jarayonlarda muhim rol o‘ynab, siyosiy xabarlarni tarqatishda, ayniqsa, saylov paytlaridagi targ‘ibot ishlarini oson bajarish uchun muhim platformalarga aylangan. Xususan, Facebook, Twitter, Instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlar siyosiy partiyalar va nomzodlar uchun muhim aloqa vositalari bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Norris, P. (2017). Strengthening Electoral Integrity. Cambridge University Press.



**Sun’iy Intellekt:** Uning siyosiy jarayonlardagi roli tobora kengayib bormoqda. U siyosiy xabarlarni tayyorlash, saylovchilarning fikrini tahlil qilish va soxta xabarlarni aniqlash kabi muhim vazifalarni bajarishda yordam bermoqda.

**Kiberhujumlar va propaganda:** Siyosiy raqiblar ustidan g‘alaba qozonish uchun kiberhujumlardan foydalanish, shu orqali ularning faoliyatiga to‘sinqinlik qilish mumkin. Soxta xabarlarni tarqatish va propaganda orqali o‘z pozitsiyasini raqiblarinikidan mustahkamlab olish ham keng tarqalmoqda. Bular ko‘rinib turganidek, siyosiy texnologiyalarning salbiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Ularning eng yomon taraflaridan biri shundaki, jamiyatda hukumatga nisbatan ishonchsizlik va beqarorlik kayfiyatini keltirib chiqarishi mumkin.

Turli mamlakatlar tajribasida siyosiy texnologiyalardan foydalanish:

**1.AQShda** siyosiy texnologiyalardan, ayniqsa saylov kampaniyalari davrida keng foydalilanadi. Barak Obama va Trump kabi siyosatchilar ijtimoiy tarmoqlardan mohirlik bilan foydalanib, elektorat bilan muloqot o‘rnatganlar. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari esa siyosiy reklamalarni maqsadli auditoriyaga yo‘naltirishda muhim vosita vasifasini bajarib kelmoqda. Masalan, 2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovlaridagi Donald Trumpning yutug‘ida Facebookdagi ma’lumotlarni tarqatish hamda ijtimoiy tarmoqlarni manipulyatsiya qilishning ahamiyati va roli katta edi.

**2.Rossiyada** siyosiy texnologiyalar, asosan, davlat boshqaruvida va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilishda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

**3.Xitoyda** esa ular davlat nazoratini kuchaytirish va ommaviy fikrni boshqarish maqsadida ishlatiladi. Ijtimoiy tarmoqlar ustidan senzura o‘rnatilib, internetdan foydalanish qattiq nazorat qilinadi. Xitoy hukumati o‘zining milliy strategiyasi orqali 2030-yilga kelib, fuqarolik hamda harbiy sohalardagi sun’iy intellekt sanoatini 150 milliard AQSH dollaridan ziyodga oshirish va shuning



natijasida bu ko'rsatkich bo'yicha AQSHdan o'zib ketishni asosiy maqsad qilib qo'yan. Xitoy davlatining sun'iy intellektni rivojlantirish yo'lidagi siyosiy strategiyasi muhim mantiqqa asoslanadi—davlatning mazkur sohani takomillashtirishga qaratilgan yo'naltiruvchilik roli dinamik xususiy sektordagi yutuqlari bilan birga mavjud ekanligi.<sup>2</sup>

**4.Yevropa mamlakatlarda** siyosiy texnologiyalardan foydalanish turlicha, davlatlarga qarab farq qiladi. Ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar siyosiy kampaniyalarda muhim ahamiyat kasb etsa, boshqa mamlakatlarda esa, aksincha, an'anaviy vositalar ustunlik qiladi.

Qiyosiy-siyosiy metod jihatdan siyosiy texnologiyalarni tahlil qilish:

Bu tahlil usuli yordamida siyosiy texnologiyalarning qanday qilib davlatlararo siyosiy tizimlarga ta'sir qilish mumkinligini o'rganish mumkin bo'ladi. Masalan, AQSH va Xitoy davlatlarini siyosiy texnologiyalardan foydalanish usullari jihatdan taqqoslanganda: AQSHda ijtimoiy tarmoqlar ochiq axborot manbasi sifatida, siyosiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, siyosiy tanqid va erkin fikrni qo'llab-quvvatlash maqsadida ham foydalanimoqda. Xitoyda esa ular jamiyatni nazorat qilish, siyosiy hokimiyatni saqlash va kengaytirishning vositasi bo'lib xizmat qiladi.<sup>3</sup>

SWOT usulida tahlil:

#### **Siyosiy texnologiyalarning afzalliklari:**

Ular siyosiy xabar va jarayonlarning keng auditoriyaga tezkor va oson yetib borishini ta'minlaydi, malasan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali. Shuningdek,

<sup>2</sup> <https://www.brookings.edu> ma'lumotlari asosida

<sup>3</sup>Journal of Information Technology & Politics ma'lumotlari asosida



saylovchilar bilan bevosita muloqot o‘rnatish, ularning fikrini va xohish-istiklarini bilish orqali ularga ta’sir o‘tkaza olish mumkin.

**Kamchiliklar:** Agar xabarlar soxta bo‘lsa, jamiyatda ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, siyosiy texnologiyalar orqali ommaviy fikrni manipulyatsiya qilish oson, agar bu yomon maqsadlarda qo‘llansa, salbiy natijalar keltirib chiqarishi mumkin. Kiberhujumlar orqali esa siyosiy jarayonlarga aralashish va saylov natijalariga ta’sir ko‘rsatish mumkin.

**Imkoniyatlari:** Siyosiy texnologiyalar yordamida xalqning siyosiy faolligini oshirish mumkin. Bu demokratiya va erkinlikni mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, eng muhim jihat shundan iboratki, siyosatda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish natijasida hukumat faoliyati shaffofligini oshirish mumkin.

**Tahdidlar:** Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan kamchiliklarga qo‘srimcha ravishda shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, raqamli texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida qaror qabul qilish jarayonlarini manipulatsiya qilish xavfi paydo bo‘ladi va siyosiy jarayonlarga nisbatan katta tahdid hisoblanadi.

PESTLE usulida tahlil:

**Siyosiy omil:** Hukumatlar o‘zlarining siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda siyosiy texnologiyalarning qanday ishlashini belgilab boradi. Ko‘pincha, ular o‘z pozitsiyalarini kuchaytirish va mustahkamlash maqsadida foydalanadilar.

**Iqtisodiy omil:** Siyosat va iqtisodiyot uzviy bog‘liqligini hisobga olinganda, siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi, o‘z navbatida, iqtisodiy taraqqiyot va o‘zgarishlarga ham olib keladi. Jumladan, raqamli iqtisodiyot shakllanadi, texnologiyalarga investitsiyalar kiritish kengayadi.



Ijtimoiy omil: Bu eng muhim omil bo‘lib, siyosiy texnologiyalar jamiyatning siyosiy jarayonlarda ishtirokini ta’minlashda ham xizmat qiladi.

Texnologik omil: Agar siyosiy texnologiyalar kengroq jalb qilinsa, bu umumiy texnologiyalarga ham ta’sir o’tkazmasdan qolmaydi. Xususan, internet tezligi oshadi, kiberxavfsizlik kuchaytiriladi va katta ma’lumotlar ustida ko‘proq tadqiqot olib boriladi.

Huquqiy omil: Saylov borasidagi qonunlar, kiberjinoyatlarga qarshi qonunlar, ommaviy axborot vositalari borasidagi qonunlarga ta’sir qiladi.

Ekologik omil: Ekologiyani himoya qilishga oid xabarlar tez tarqatish mumkin bo‘ladi, biroq ekologik xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, elektron chiqindilar va ularni qayta ishlash natijasidagi ifoslantiruvchi moddalar ekologiyani zararlaydi.

### Tanqidiy fikrlash asosida argumentlar va kontrargumentlar

Siyosiy texnologiyalarning hukumatni egallashdagi roli bo‘yicha turlicha fikrlar mavjud. Bir tomondan, siyosiy texnologiyalar demokratik jarayonlarni rivojlantirish va jamiyatni o‘zgartirish uchun muhim vosita deb hisoblansa, boshqa tomondan esa siyosiy texnologiyalarning manipulyatsiya qilish, soxta xabarlar tarqatish kabi salbiy tomonlari ham mavjud.

**Argumentlar:** Siyosiy texnologiyalar saylovchilar bilan muloqot qilish, ularning fikrlarini bilish, shu orqali jamiyatning muammolarini hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli platformalar yordamida siyosiy shaffoflikni oshirish va korrupsiyani kamaytirish mumkin bo‘ladi.

Va shuningdek, siyosiy texnologiyalar orqali fuqarolik faolligi oshadi va jamiyatning siyosiy hayotda ishtirok etish darjasini yaxshilanadi.



**Qarshi argumentlar:** Siyosiy texnologiyalar orqali soxta xabarlar tarqatish, propaganda va manipulyatsiya qilish mumkin, buning natijasida esa jamiyatda ishonchszizlik va beqarorlik kelib chiqadi. Raqamli platformalar orqali shaxsiy ma'lumotlardan noto'g'ri maqsadlar yo'lida foydalanish va saylovchilarning shaxsiy hayotiga aralashish mumkin. Shuningdek, siyosiy texnologiyalardan keng foydalanish avtoritar rejimdagи davlatlar uchun nazorat va senzura imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Taklif va tavsiyalar:

Siyosiy texnologiyalardan foydalanish, shubhasiz, hukumatni egallashda muhim rol o'ynaydi. Ammo ulardan foydalanishda ma'lum bir qonuniy va axloqiy me'yordarga amal qilish lozim. Jamiyatning soxta xabarlar va manipulatsiya natijasida jabrlanmasligi uchun raqamli savodxonlik darajasi oshirilishi ma'ql bo'ladi. Soxta xabarlarga qarshi kurashish, jumladan, dezinformatsiyalarga qarshi ma'lum bir saytlar mavjud, shulardan foydalanishni kengaytirish zarur.

### Xulosa:

Siyosiy texnologiyalar har asrlarda hukumatni egallashda va siyosiy maqsadlarga erishishishda muhim vosita bo'lib kelmqoda. Ularning ta'siri jamiyatning barcha sohalarida, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqalarda yaqqol sezilmoqda. Siyosiy texnologiyalar bir qator afzalliklari bilan bir qatorda, o'zining kamchiliklariga ham ega. Ulardan oqilona va to'g'ri maqsadlarda foydalanish demokratik jarayonlarni rivojlantirishga va jamiyatda siyosiy faollik kuchayishiga yordam beradi. Biroq, aksincha bo'lsa, ularni noto'g'ri qo'llash jamiyatda ishonchszizlik, beqarorlik va avtoritar rejimlarning jamiyatga nisbatan bosimi kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ham siyosiy texnologiyalardan foydalanishdan avval ularni puxta o'rghanish, ularning ta'sirini tahlil qilib chiqish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.



**Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Norris, P. (2017). *Strengthening Electoral Integrity*. Cambridge University Press.
2. Zuboff, S. (2019). The age of surveillance capitalism: The fight for a human future at the new frontier of power. PublicAffairs.
3. Diamond, L. (2008). *The Spirit of Democracy*. Macmillan.
4. Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. Simon & Schuster Paperbacks.

**Elektron Manbalar:**

1. <https://www.cfr.org>
2. <https://www.brookings.edu>
3. <https://www nbr.org>